

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA IJTIMOIYLASHUVINI TA'MINLASHDA PEDAGOGIK ASOSLAR

Akbarov Odiljon Ergashevich

Namangan davlat universiteti

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tel:+99894-156-10-82 e.mail: shahinabonu16@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim-tarbiya jarayoniga erkin moslashuvi, ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari va ularni amalga oshirish vositalari haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ko'nikma, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiylashuv, individuallashuv, ijtimoiylashuv vositalari, tarbiya, muhit, bilish.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛИЗАЦИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Акбаров Одилжон Эргашевич

Наманганский государственный университет

Доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

Tel:+99894-156-10-82 e.mail: shahinabonu16@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассмотрены педагогические основы формирования социальных навыков и способы их реализации у младших школьников в условиях их свободной адаптации к учебно-воспитательному процессу.

Ключевые слова: социальные навыки, социальная адаптация, социализация, индивидуализация, средства социализации, воспитание, среда, познание.

PEDAGOGICAL BASIS FOR ENSURING THE SOCIALIZATION OF PRIMARY STUDENTS INTO THE EDUCATIONAL PROCESS

Akbarov Odiljon Ergashevich

Namangan State University

Doctor of Philosophy of Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Tel:+99894-156-10-82 e.mail: shahinabonu16@gmail.com

Annotation: This article examines the pedagogical foundations of the formation of social skills and ways of their implementation in younger schoolchildren in conditions of their free adaptation to the educational process.

Keywords: *social skills, social adaptation, socialization, individualization, means of socialization, upbringing, environment, cognition.*

KIRISH

Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda yosh avlodni zamon bilan hamnafas bilimlar bilan qurollantirish va jahon mamlakatlaridagi o'z tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan kuchli ilmlar egasi etib tarbiyalash bugungi kunning muhim masalalardan biri hisoblanadi. Yurtimizda yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar esa yosh avlodni ta'lim-tarbiya olishida o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlod uchun har qaysi ta'lim yoshida o'ziga xos e'tibor qaratilishi yoshlar tarbiyasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan darak beradi. O'zini anglash, o'zligini namoyon qilish, o'ziga baho berish, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalari, hayotda o'z o'rnini mustaqil belgilay olish singari shaxsiy xususiyatlarni tarbiyalash ijtimoiylashuv jarayonining asosiy maqsadi sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi, ularning ijtimoiylashuvi borasida chuqur o'ylangan va uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbolli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu xususida yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida: Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat", - deb ta'kidlaydi.[1. 3-b.]

Ijtimoiy ko'nikmalar - bu ijtimoiy xulq-atvorning o'zlashtirilgan elementlari bo'lib, ular ijtimoiy olam, o'zi va bu yorug' olamdagi o'rni, ijtimoiy o'zaro aloqalarni osonlashtiradigan xatti-harakatlar haqidagi bilimlarga hamda insonga atrof-muhit bilan munosabatlarni samarali ravishda o'rnatish, o'z o'rnini belgilab olish va o'zligini namoyon qilishga imkon beradigan harakatlarga asoslanadi hamda bu muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv va umuman olganda, ijtimoiylashishga yordam beradi. Ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o'zlashtirish jarayonidagi rivojlanish va o'zgarishi bilan aniqlanadi. Ushbu hodisani ijtimoiy pedagogika sohasi o'rganishi bizga ma'lum. Ijtimoiy pedagogika bilan pedagogika sohasi o'rtasidagi farq ham

aynan shunda. Pedagogikaning o'rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblanadi, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlari hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya- bu bolalarning ijtimoiylashuvi va bolalarga ijtimoiy ta'lim va ijtimoiy tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika fanining tarmog'idir. Ammo ikkala fanning ham obyekti bola, uning ta'lim tarbiyasi, jamiyatda muhim shaxs sifatida tarbiyalanishi ikkala sohada ham o'z ifodasini topadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning hamma narsani egallashga bo'lgan obyektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir obyektiv ehtiyoj-o'ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Bu hodisa shunda namoyon bo'ladiki, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega hislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlariga ega bo'ladi. Shunday qilib bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish). Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv (birlashish) va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq. Ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni inson (bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvidir.

Moslashuv sub'ekt va ijtimoiy muhit faolliklarining yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. (J.Pia Je, R.Mertoj). Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir. Maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari muomala (otakonalar, tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o'yin, o'qish, ijod, sport)dir. Ushbu kategoriyalar, avvalo, bola tashayotgan xonadonda, maktabgacha ta'lim muassasasida, so'ngra esa, maktabda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf darsliklarida bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan bir qancha fanlar mavjud. Ijtimoiylashuv deb individning o'zi mansub

bo'lgan ijtimoiy muhit (sotsium) da mavjud ijtimoiy me'yorlar, madaniy qadriyatlar ijtimoiy xulq normalarini o'zlashtirishi asosida shu jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylanishiga aytiladi deb ta'kidlaydi o'z maqolasida dotsent Nigora Adizova [4. 28-b.].

Insonga ijtimoiy mavjudot sifatida qarash fikri eng qadim zamonlarga, Konfutsiy, Platon va Aristotel davrlariga borib taqaladi. Platon "Davlat" asarida bolalarni yoshligidan boshlab ijtimoiy tarbiyalash g'oyasini ilgari suradi va uni tashkil etishning muayyan tizimini taklif qiladi. Buyuk faylasuf Platonning "farzandlaringizning ilm va adabini o'zingizning ilm va adabingiz bilan cheklamang, ularni kelgusi zamon uchun tayyorlang, chunki ular sizning zamonangizga tegishli emas, ular kelgusi zamon odamlaridir"-degan hikmatlari hozirgi davrda ota-onalar hamda murabbiylar uchun ham qimmatlidir .[5. 266-b,]

Hozirgi zamon fanida "ijtimoiylashuv" atamasi shaxsga nisbatan ilk bor amerika sotsiologi F.G. Giddingsning 1887-yilda nashr qilingan «Ijtimoiylashuv nazariyasi» asarida qo'llanilgan. Ijtimoiylashuv Giddings nuqtai nazaricha, "inson materialini ijtimoiy hayotga tayyorlashda individ xarakteri yoki ijtimoiy tabiatini rivojlantirishni anglatadi. [6. 201-b.] Ijtimoiylashuv jarayonida individning jamiyat bilan turli shakllardagi hamkorligi natijasida shaxsga nisbatan muayyan ta'siri yuzaga keladi. Ana shu ta'sirlar jamlanmasiga ijtimoiylashuv omillari deb yuritiladi. Irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim va tarbiya bilan bir qatorda shaxs rivojlanishida har bir individ uchun noyob ahamiyat kasb etadigan qator omillar mavjud. Quyida ular xususida fikr yuritiladi.

A.V.Mudrik insonning ijtimoiylashuviga o'z ta'sirini ko'rsatadigan omillarni quyidagi to'rt guruhda tasavvur qiladi: megaomillar - koinot, sayyora, olam, Internet; makroomillar – mamlakat, elat, jamiyat, davlat; mezoomillar – katta guruhdagi odamlarning yashash hududi, o'rni va turmush tarzi bilan bog'liq holdagi ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari (region, qishloq, ovul, shahar), u yoki bu ijtimoiy-madaniy adoqadorligiga ko'ra; mikroomillar – oila, mahalla, tengdoshlari, tarbiyachilar va boshqa mikro ijtimoiy muhit subektlari. Shaxsning ijtimoiylashuvida oila bola uchun birinchi va eng yaqin ijtimoiy qo'rg'on sanaladi, va bolaning ijtimoiylashuvida yetakchi muhit sifatida muhim iz qoldiradi. N.Egamberdiyeva bu xususida shunday yozadi: «Oilaga kirish-ma'lum emotsional

munosabatlar tizimida ishtirok etish, shu ijtimoiy guruhga mansub bo'lish, u bilan umumiy tarixga ega bo'lish, belgilangan joyda istiqomat qilish demakdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ayrim hozirgi zamon oilalari o'z boshidan jiddiy inqirozni boshidan kechirmoqda, ichki oilaviy munosabatlarga putur yetmoqda, bolalar va ota-onalar orasida begonalashuv holatlari ortib bormoqda, ajrimlar va to'liq bo'lmagan oilalar miqdori ko'paymoqda, tug'ilish darajasi pasayib, bolalar salomatligi yomonlashmoqda. Katta yoshdagilarning moddiy boyliklarga bo'lgan intilishlarining kuchayishi natijasida ularning asosiy vazifalari bo'lgan bola tarbiyasidagi roli ommaviy axborot vositalari, bolalarning ko'chadagi tengdoshlari, shuningdek, bevosita bolalarning o'zlariga qolib ketmoqda. Oilalarning o'zining bola ijtimoiylashuvi bilan bog'liq bo'lgan aksar vazifalarining ijtimoiylashtirish institutlariga berib qo'yishlari shaxsning ijtimoiylashuvida turli omillar ta'sirida ziddiyat, o'zaro kelishmovchilik va nomuvofiqlarni keltirib chiqarmoqda». Bola ijtimoiylashuvi va o'zligini ifoda etishida shaxsiy kenglik muhitini yaratish yaxshi samara beradi. Bunda bolaning o'z alohida xonasi, krovati, shaxsiy buyumlari, o'quv qurollari va ish stolining bo'lishi nazarda tutilmoqda. Bu ularning ba'zida yolg'iz qolishlari, o'ylashlari, xatti- harakatlarini rejalashtirib olishlarida yordam beradi. Bola ijtimoiylashuvining eng asosiy sharti – bu ta'lim. Ta'lim vositasida bola atrofdagi olam, tabiat va jamiyat qonuniyatlari, ajdodlar o'gitini o'zlashtiradi, ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi.

Birlamchi ijtimoiylashuv jarayonida shakllangan bilim, ko'nikma va malakalarining yangi axborotlar hisobiga boyishiga musharraf bo'ladi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, avloddan-avlodga o'tkazib berilgan bolaning irsiy-biologik omillari, oila, ta'lim-tarbiya muhiti, ekologik muhit omillari, texnik va texnologik axborot xurujlari va hokazolar pedagoglar e'tibor berishlari lozim bo'lgan shart-sharoitlar va omillar sirasiga kiradi. Demak, bolaning rivojlanishiga o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini ko'rsatuvchi omillarga alohida e'tibor qaratish tarbiyachi

va o'qituvchilar hamda ota-onalar zimmasiga o'ta mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi hamda bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashning garovi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 1.07.2017 y.
2. Zunnunov A. Pedagogika tarixi darslik. Sharq.T.: 2004. 266-bet.
3. Педагогическая энциклопедия. Fan.T.: 2001. 201-ст.
4. Adizova N. O'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyasi. B.-"Globe" nashriyoti, 2022. International Conference on Developments in Education Hosted from Amsterdam, Netherlands <https://econferencezone.org> 22nd Feb. 2023-y.
5. Adizova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyasi. International Conference on Developments in Education Hosted from Amsterdam, Netherlands <https://econferencezone.org> 22nd Feb. 2023.
6. Pardayev B, Axtamova I. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiylashuvini ta'minlash pedagogik muammo sifatida. "Uchinchi renessans davrida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2022-y.